



JORIY AKTIVLAR KATEGORIYASINING IQTISODIY TAVSIFI VA MOHIYATI

Rustamova Madinabonu Boxodir qizi

Namangan davlat texnika universiteti 1-bosqich magistr

Annotatsiya: *Ushbu maqolada joriy aktivlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ilmiy asoslangan ta'riflarining tahlili berilgan. Shuningdek, joriy aktivlarni qo'llanilish sohalari ham keltirilgan. Joriy aktivlarni buxgalteriya sohasida qo'llanishining muhim jihatlari ham ilmiy-tahliliy mulohazalar asosida yoritilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *joriy aktivlar, iqtisodiy kategoriya, iqtisodchi olimlar, ilmiy asoslangan ta'riflar, tahlil, bug'alteriya, ilmiy-tahliliy mulohazalar.*

Abstract: *This article provides an analysis of scientifically based definitions of current assets as an economic category given by economists. Areas of application of current assets are also listed. Important aspects of the use of current assets in the field of accounting are also highlighted on the basis of scientific and analytical considerations.*

Key words: *current assets, economic category, economists, scientifically based definitions, analysis, accounting, scientific-analytical considerations.*

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish hamda mulkiy munosabatlarni erkinlashtirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, inqirozga qarshi choralar dasturining izchil amalga oshirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va yangilashning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, faol investitsiya siyosatini amalga oshirgan davlatlar iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishadi.

Shu bois investitsiyani iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, ya'ni uning yuragi deb baholash mumkin. Investitsiyalar orqali iqtisodiyotning turli tarmoq va hududlariga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or tajribalar hamda malakali mutaxassislar kirib keladi, natijada tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanadi".

Iqtisodiy islohotlarning izchil davom etishi sharoitida buxgalteriya hisobi korxonalar mablag'laridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalar faoliyatida yuz berayotgan barcha xo'jalik jarayonlarini muntazam kuzatib borish, ularni o'lchash va tegishli tartibda qayd etish orqali faoliyat natijalari miqdoriy ko'rsatkichlarda aks ettiriladi. Aynan shu jihatlarni hisob tizimining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Nufuzli Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2018–2019 yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha dunyoning eng tez rivojlanayotgan besh mamlakati qatoridan o'rin oldi.



Xususan, 2019 yilda respublika yalpi ichki mahsuloti 58,3 milliard AQSH dollaridan oshib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 5,4 foizga o'sdi.

O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, YaIM indikatori 2018 yilgi narxlarga nisbatan 18,9%ni tashkil etdi. 2019 yil yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaIM 1741 dollar ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 13,6%ga ko'p.[2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Joriy aktivlar tarkibiga yuqori likvidlikka ega bo'lgan mablag'lar kiradi, ya'ni ular qisqa muddat ichida pul mablag'lariga aylanish xususiyatiga ega hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun iqtisodiy foyda keltiruvchi muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi. Ular korxonada faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda kelgusida daromad olish imkoniyatlarini yaratishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida tayyorlash, ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish jarayonlarida bevosita ishtirok etadi

Iqtisodchi olimlar A.Sotivoliev, D.Sotivolieva, D.Shodibekovalarning fikrlaricha "Aktiv - ma'lum bir sanaga pul ko'rsatkichiga korxonaning mablag'lari, ularning tarkibi va joylanishi aks ettiruvchi buxgalteriya balansining qismi" hisoblanadi.

Iqtisodchi olim I. Ismanovning ta'kidlashicha, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida foydalaniladigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar sifatida e'tirof etiladi hamda ular uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratiladi. Olimning fikricha, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda aktivlar muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Xorijlik iqtisodchi V.V. Kovalev esa aylanma kapitalni xo'jalik subyektining bir yilgacha bo'lgan muddatda ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan harakatlanuvchi aktivlari sifatida tavsiflaydi. Unga ko'ra, aylanma mablag'lar ishlab chiqarish jarayonida yoki bir yil davomida foydalaniladigan pul mablag'lari va boshqa resurslarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi I.N. Ismanovning ta'kidlashicha, aktivlarni uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratish hamda ularning xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan uzviy bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini ifodalaydi.[4]

R.D. Dusmuratovning fikriga ko'ra, buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismlardan tashkil topadi. Balans aktivida uzoq muddatli hamda joriy aktivlar aks ettirilsa, passiv qismida korxonaning o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlari ifodalanadi. Shuningdek, olim buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotni tuzishda amal qilinishi zarur bo'lgan asosiy tamoyil va talablarni yoritib bergan. [5]

Y. Abdullayev, A. Ibrohimov va M. Raximovlarning fikricha, joriy aktivlar tarkibiga xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy aylanma mablag'lari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hamda debitorlik qarzlari kiritiladi. Shu bilan birga, mazkur tarkibni yanada takomillashtirish maqsadida muddati kechiktirilgan



xarajatlarning joriy qismini ham joriy aktivlar tarkibiga qo'shish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olim B. Nidlzning ta'kidlashicha, balans korxonaning muayyan sanadagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi muhim moliyaviy hisobot shakli hisoblanadi. Unda korxonalar resurslari — aktivlar hamda ularning shakllanish manbalari — passiv va xususiy kapitalning o'zaro tengligi ifodalanadi. Shuningdek, buxgalteriya balansining aktiv qismidagi alohida bo'lim joriy aktivlarni aks ettirishga xizmat qiladi.[5]

Buxgalteriyabalansida joriy aktivlar yettita guruhga ajratilgan:

II. Joriy aktivlar:

1. Tovar-moddiy zaxiralari.
2. Kelgusi davr xarajatlari.
3. Kechiktirilgan xarajatlar.
4. Debitorlar.
5. Pul mablag'lari.
6. Qisqa muddatli investitsiyalar.
7. Boshqa joriy aktivlar

TADQIQOT METODIKASI.

Mazkur maqolada sintez va analiz, statistik hamda qiyosiy tahlil, omilli tahlil, induksiya va deduksiya, nisbiy ko'rsatkichlar, tasniflash va tizimlashtirish kabi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, amalga oshirilgan iqtisodiy tahlillar natijalari jadval, grafik va sxemalar orqali yoritilib, ular asosida tegishli xulosalar shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR.

Buxgalteriyahisobining obyektlari asosiy va joriy aktiv, majburiyat, xususiy kapital, zaxiralalar, daromad va xarajat (chiqim)lar, foydalar, ularning harakatlari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan buxgalteriyabalansining "Aktiv" tomoni xo'jalik aktivlarini xizmat muddatiga ko'ra quyidagi ikkita bo'lim bo'yicha tizimlashga asoslangan:

I- bo'lim. "Uzoq muddatli aktivlar". Ushbu bo'limda bir yildan ko'p muddatda oborotda bo'ladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital investitsiyalar, shuningdek uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati uzaytirilgan xarajatlarning qoldiq summaları ko'rsatiladi.

II-bo'lim. "Joriy aktivlar". Ushbu bo'limda bir yildan kam muddatda oborotda bo'ladigan ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari, tayyor mahsulotlar va tovarlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa joriy aktivlarning qoldiq summaları ko'rsatiladi.



1-rasm Korxonaning balans aktivining tarkibi.[3]

Joriy aktivlar o'z ichiga pul mablag'lari va korxonaning normal ish yoki buxgalteriya balansi sanasidan bir yil davomida (qaysi biri uzunroq bo'lishiga bog'liq holda) pul mablag'lariga aylantirilishi, sotilishi yoki sarflanishi kutiladigan boshqa aktivlarni oladi.

Korxonaning normal ish sikli-tovar va xizmatlar uchun pul xarajatlari (yoki to'lanadigon schyotlarni tuzish) bilan pul mablag'lariga aylantirilgan tovar va xizmatlar sanasining o'rtacha vaqt muddatidir.

Joriy aktivlarni turkumlash nisbatan yengil, lekin bu yerda ham muammolar kelib chiqishi mumkin, sababi normal ish sikli va pul mablag'lariga aylantirish uchun korxonaga kutiladigon davr kabi iboralar har xil mulohazalar keltirib chiqaradi.

Xalqaro amaliyotda ushbu mablag'lar turlicha: joriy aktivlar, harakatdagi aktivlar, aylanma aktivlar deb yuritiladi.

Joriy aktivlarni ishlab chiqarishda ishtrok etish xarakteri va unga ta'sir etish darajasiga ko'ra, shuningdek, hosil bo'lish manbalari bo'yicha tarkiblash mumkun.

Joriy aktivlarning tasniflanishi keltirilgan bo'lib, ular quydagicha tarkib bo'yicha ajratiladi.

I. Likvidlik darajasiga ko'ra:

II. Joriy aktivlarning ishlab chiqarishdagi qatnashish o'rni va darajasiga ko'ra.

III. Joriy aktivlarning me'yorlashtirish darajasiga ko'ra:

IV. Joriy aktivlarni shakllanish manbasiga ko'ra:

V. Joriy aktivlarning to'lovga layoqatligini baholashga tavakkalchilik darajasiga ko'ra esa.

Joriy aktivlar bu pul mablag'lari ko'rinishidagi 12 oy yoki oddiy operatsion sikl mobaynida shu ko'rinishga keltirilishi mumkin bo'lgan aktivlardir. Operatsion sikl deganda moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga tayyorlash va tovarlarni sotishdan olinadigon to'lov muddati o'rtasidagi o'rtacha vaqt birligi tushuniladi. Me'yorlanadigon joriy aktivlar bo'yicha zaxiralar me'yori belgilanadi, masalan, tovar moddiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi yoki savdodagi tovarlar zaxirasi, kassadagi pul mablag'lari qiymati, joriy investitsiyalar va boshqa shu turdagi kapital kiritmalarni keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Joriy aktivlar me'yori deganda korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini uzluksiz hamda barqaror amalga oshirish uchun zarur bo'lgan joriy aktivlarning eng kam rejalashtirilgan hajmi tushuniladi. Joriy aktivlar me'yori umumiy me'yor va alohida joriy aktiv elementlari bo'yicha me'yorlarga ajratiladi.



Joriy aktivlarni me'yorlashtirishda rejalashtirilayotgan davr uchun mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari smetasi asosiy manba hisoblanadi. Me'yorni aniqlash jarayonida me'yorlashtiriladigan elementlarning kunlik o'rtacha sarfi pul ifodasida hisoblab chiqiladi. Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha o'rtacha sarf ishlab chiqarish xarajatlari rejasining tegishli moddalari asosida belgilanadi. Zaxira me'yorlari foiz yoki pul ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha belgilangan me'yorlardan kelib chiqib, har bir joriy aktiv turi uchun zarur aylanma mablag'lar summasi aniqlanadi. Alohida me'yorlarning yig'indisi esa umumiy joriy aktivlar me'yorini shakllantiradi. Demak, joriy aktivlar me'yori korxonaning normal faoliyat yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning minimal pul ifodasidagi hajmini anglatadi. Joriy aktivlarning tuzilishini aniqlash uchun eng optimal tasnif - bu investitsiya obyektlari bo'yicha tasnif. Aylanma aktivlarning tuzilishi deganda, ularning alohida obyektlari o'rtasida resurslarning taqsimlanish nisbati tushuniladi. Joriy aktivlarning maqbul tuzilishi deganda, har bir moddaning ulushi korxonaga likvidligini saqlashga hissa qo'shadigan alohida obyektlar o'rtasida resurslarni taqsimlash tushuniladi. Joriy aktivlarning likvidligi moddiy ne'matlarga xos bo'lgan mulkdir.

Likvidlik ostida moddiy boylik uning tez va sezilarli yo'qotishlarsiz pulga aylanish qobiliyati tushuniladi. Joriy aktivlar - bu korxonaning joriy faoliyatiga xizmat qiladigan va bir ishlab chiqarish va tijorat tsikli davomida to'liq iste'mol qilinadigan mulkiy qiymatlar majmui. Joriy aktivlar kontseptsiyasi ularning iqtisodiy mohiyati, ishlab chiqarish jarayonini ham, aylanish jarayonini ham o'z ichiga olgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlariga asoslanib, buxgalteriya balansini korxonaning muayyan sanadagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi hamda aktivlarning majburiyatlar va xususiy kapital bilan tengligini ifodalovchi muhim moliyaviy hisobot shakli sifatida tavsiflash mumkin.

Joriy aktivlar korxonaga faoliyatida qisqa muddat davomida foydalanilishi hamda ishlab chiqarish va tijorat jarayonining barcha bosqichlarida bir vaqtning o'zida ishtirok etishi bilan xarakterlanadi. Uzluksiz ishlab chiqarish va tijorat siklini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning bir qismi doimiy, qolgan qismi esa vaqtinchalik xususiyatga ega bo'ladi. Shu sababli joriy aktivlarning shakllanish manbalari ham doimiy yoki vaqtinchalik manbalardan tashkil topadi. Mazkur manbalar korxonaning joriy faoliyatida pul mablag'laridan foydalanish darajasini ifodalaydi va ularning umumiy hajmi joriy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdoriga mos keladi.

Joriy aktivlarning shakllanish manbalari tarkibida asosiy o'rinni korxonaning o'z aylanma mablag'lari egallaydi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari avvalo uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi, qolgan qismi esa joriy aktivlarni qoplash manbasi sifatida xizmat qiladi.



Xulosa qilib aytganda, tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida buxgalteriya balansining mazmuni yoritilib, uning asosiy tavsiflari ochib berildi.

Shuningdek, buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida uzoq muddatli aktivlarni moddiy va nomoddiy aktivlarga ajratish zarurligi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Manba: <https://mineconomy.uz/uz/news/view/3022> O'zbekiston Respublikasining 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy tendensiyalari
2. I.Ismanov "Uzoq mudatli aktivlarning bug'alteriya hisobi va audit metodologiyasini jamlashtirish masalalari". Toshkent.: 2008.
3. Yuldasheva S. Buxgalteriyahisobi asoslari: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasb-hunar kollejlarning "Axborot-kommunikatsiya tizimlari" mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma - T.: Sharq. 2007.- 18b.
4. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlar. Бухгалтерский Учет И Аудит. экономика и финансы 2016.
5. Р.Д.Дусмуратов Бухгалтерия ҳисоби назарияси. -Т.: «Фан ва технология», 2013, 476 бет.
6. Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета /Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл: Пер. с англ./Под ред. Я.В. Соколова. –М.: Финансы и статистика, 2003. – 496с.
7. А.А.Каримов, Ж.Э.Курбанбаев, С.А.Жуманазаров Бухгалтерия ҳисоби 1-қисм: Дарслик; – Т.: Иқтисод-Молия", 2020. б.